

MAVZU: QAYNONA VA KELIN MUNOSABATLARI.

Kukon Davlat Universiteti Andijon filiali talabasi

Psixologiya yo'nalishi 24/01-guruh talabasi

Alieva Shohsanamxon Nurmadjon qizi

Shohsanamalieva1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek oilalarida qaynona va kelin munosabatlarining ahamiyati, islomda ularning mavqei, qaynona va kelin vazifalari, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarning sabablari kabi masalalar o'rin olgan.

Kalit: Oila, nikoh, turmush, er-xotin, qaynona, kelin, mojaro, jamiyat.

O'zbek oilasi va oilaviy munosabatlarida qaynona va kelin munosabatlari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Qaynonaning o'zbek oilasida o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, uning asosiy xususiyatlari oiladagi ichki tartib-intizomni saqlash, o'zaro munosabatlarni shakllantirish, kelinni "tarbiyalash" ga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ta'kidlaganidek; "Qaynona va qaynona kuyovga ham, kelinga ham ota-ona o'rnida bo'ladi va ularning hurmatini joyiga qo'yish hamda roziligini olishi vojibdir. Islom dini ota-ona kim bo'lishidan qat'i nazar, ularni hurmat-ehtirom qilishga buyuradi. Dunyoda islomchalik ota onaning hurmatini yuqori qo'ygan boshqa biror ta'limot, tuzum yo'qdir". Qaynona kelin munosabatlari xususida so'z yuritir ekanmiz Faxr-ul Banot Sibg'atullox qizining "Oila saboqlari" nomli asaridagi quyidagi so'zlar e'tiborimizni tortdi: "Qaynona deb aytilganda kelinlarning, kelinlardan so'z chiqqanda qaynonalarning yuzlarida bir sovuqlik ta'siri taassufki, har uyda ko'rinmoqdadir" degan so'zlari bugungi kunda ham ba'zi qaynona va kelinlarning yuz ifodasini tasvirlaganday go'yo. Ushbu asarda olim "tarbiya ko'rgan qiz qaynonasini ulug'lab, unga hurmat ila ish qiluvni o'zini bilgan qaynona ham kelinni suyuvi va yaxshi tutivni bilur", deya o'z fikrini davom ettiradi. Darhaqiqat qaynonalik ham kelinlik ham ma'suliyat. Butunlay boshqa muhitda tarbiya topgan qizni o'z qizi kabi qabul qilish, unga mehr berish, g'amxo'rlik ko'rsatish, kelinlarda esa ichki go'zallikni, ahloqiy qiyofaning yetuk bo'lishi, qaynonasiga g'amxo'rlik ko'rsatishi ham katta fidoiylilik talab qiladi.

Qanday qilib yaxshi qaynona bo'lish mumkin:

O'g'lining uylanishidan keyin ona uchun yangi munosabatlarga moslashish va o'g'lining hayotida eng muhim ayol bo'lgan ayol bilan aloqalarni o'rnatish uchun qiyin o'tish davri boshlanadi. Bu, albatta, oson emas. Kelin bilan munosabatlar qanday bo'lishi ko'p omillarga bog'liq, eng muhimi quyidagilar:

- *Kelinning o'z oilaviy holati (xususan, onasi bilan munosabatlari);*
- *Qaynona kelin bilan ochiq va ishonchli bo'lishga tayyorligi – va aksincha;*

- *Qaynona bilan o'g'li o'rtasidagi yaqinlik darajasi;*
- *Ayollar orasidagi masofa (birga yashaydimi yoki alohida va qanchalik uzoqda).*

Biroq, kelin bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish uchun ham bir necha usullar mavjud bo'lib. Bu erda birinchi qadam – hurmat. Ona o'g'li bilan bo'lgan munosabatlariga hurmat bilan yondashish va uning e'tiborini jalb qilish uchun raqobat qilmaslikka harakat qilish. O'g'lini tanqid qilmaslik va farzandiga kelinning eng yaxshi tanlov emasligini isbotlashga urinish. O'g'il, u tanlovni allaqachon qilgan va ona o'z noroziliklari bilan yosh oilani o'zidan uzoqlashtirishga sabachi bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, O'g'lning bolalarni tarbiyalash usullariga hurmat bilan yondashish, hatto ularga rozi bo'linmasa ham. Qaynona davridagi, bolalarni tarbiyalagan vaqtdan beri ko'p narsalar o'zgargan va yangi avlod siz o'rganib qolgan stereotiplar va printsiplardan uzoqlashmoqda. Aksincha, kelinning qoidalarini qabul qilish unga ishonch va samimiy munosabatni mustahkamlashga yordam beradi.

Hech kim mukammal emas, shuning uchun kelin ba'zan o'zini yaxshi ko'rsatmasligi yoki qaynona rozi bo'lmagan fikrlarni saqlashi mumkin. Qaynona o'z fikringizni bildirishga haqli, ammo uni majburlashdan saqlash darkor.

Uchinchidan, Qaynona kelinga o'z qizidek munosabatda bo'lishga harakat qilish bu albatta yaxshi. Ehtimol, kelin o'g'il uchun mos juft deb ko'rmagan inson bo'lishi mumkin. Ammo o'g'il unda nimadir topgan! Buni tushunish uchun bo'lajak kelinni oilaga qabul qilish va unda shaxsiyatni ko'rishga harakat qilish kerak, raqibni emas.

Oilada kelinning mas'uliyatlari: Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Har bir oilaning o'ziga xos muhiti, qonun-qoidalari, an'analari, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga beradigan baho mezonlari, hatto faqat shu xonadon a'zolari tushunadigan, shartli ravishda qabul qilingan so'z, iboralari bo'ladi.

Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga ega bo'lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U yoshi ulug'lar darajasida bilmasa ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. Shuning uchunni nigohgacha onalar qizlariga osh-ovqat pishirishni, uy-joyni saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini iqtisod qilishni, uyanjomlari, jihozlaridan asrab avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga alohida e'tibor berishlari zarur. Chunki el orasida «qiz birovning xasmi, boshqa oilaga tushishi bor», degan hikmat bor. Shuni doimo esdatutib, qizlarni ro'zg'or tutishda puxta tayyorlash kerak. Qaynonalar ham kelinlardan har-xil kamchilik va qusur axtarmasdan, uni o'z farzandiday ko'rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o'rgatib borishi lozim. Kamchiliklarini yuziga solavermasdan, yaxshi tomonlarini eslab turishlari kerak. Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi. Qaynonalar kelinlarida

hosil qilingan ko'nikma va malakalarning o'g'li uchun va kelajakda nabiralari uchun xizmat qilishini esda tutishlari zarur.

Yangi tushgan kelin o'zi bilan o'zi tug'ilib o'sgan uyining muhitini, odat, ko'nikmalarini ham olib keladi. Shuning uchun ham ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi. Ota-onalar iqtisodiy, moddiy, ijtimoiy saviyasi orasidagi tafovut ham aksariyat kelinkuyov orasidagi munosabatlarning keskinlashuviga ta'sir qilishi mumkin. Bunda iqtisodiy omil shu bilan ifodalanadiki, kelin yangi tushgan xonadonda qizlik xonadonidagi iqtisodiy mo'lko'lichilikni ko'rmasdan, o'z turmushidan sovishi mumkin. Shuning uchun ham donolar «Qiz bersang o'zingdan bir pog'ona balandga ber, sening xonadoningda ko'rmaganini yangi xonadonida ko'rib, yangi xonadonga ko'nikishi oson kechadi. Qiz olsang o'zingdan birpog'ona pastdan ol. Shunda kelin o'z uyida ko'rmagan mo'l ko'lichilikni sening xonadoningda ko'rib, bu muhitga tez ko'nikadi», deyishgan. Madaniy-ijtimoiy omilning ahamiyati. Kuyov ma'lumotli, madaniyatli oiladan bo'lib, kelin aksincha dehqon, ishchi yoki savdogar oiladan bo'lsa yoki er-xotindan biri shahardan, ikkinchisi qishloqdan bo'lsa, mazkur ijtimoiy-madaniy tafovut ham er-xotin o'rtasidagi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelin-kuyovlar ijtimoiy kelib chiqishida ham, iqtisodiy ta'minlanganlikda ham bir-biriga mushtarak bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oiladagi munosabatlar va oilaviy muloqot psixologiyasi – bu har bir inson hayotida muhim rol o'ynaydigan soha. Sog'lom oilaviy munosabatlar shaxsiy rivojlanish, ruhiy farovonlik va baxtli hayotning asosi hisoblanadi. Ushbu mavzuni o'rganish orqali biz oilaviy munosabatlarni yaxshilash, muloqotni samaraliroq qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va ota-onalik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llarini topamiz. Adabiyotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq muloqot, sevgi, hurmat, qo'llab-quvvatlash va moslashuvchanlik oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va qoniqarliligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardir. Oilaviy muammolarni hal qilishda psixologik yordam va terapiya ham muhim rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarga e'tibor qaratish va ularni rivojlantirish har birimizning burchimizdir, chunki baxtli oila – baxtli jamiyatning asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada siz o'zingizga ma'naviy ozuqa olishingizga shubha qilmaymiz, maqola orqali siz oilaviy munosabatlar, oiladagi muloqot va unda yuzaga keladigan to'siqlar haqida ma'lumotlar olasiz va oilaviy munosabatga kirishishda oilaviy munosabatlar va oilaviy muloqat haqida bilimlaringizni boyitsangiz bu bizning yutug'imizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova, Z. (2017). O'zbek oilasida ijtimoiy munosabatlar va oilaviy qiymatlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Karimova, D. (2020). Qaynona-kelin munosabatlarining psixologik aspektlari. Toshkent:
3. Sodiqova T. Mehr qolur. - Toshkent Mehnat, 1998. - B . 116-117.[1]
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odob. - Toshkent: Hilol Nashr, 2020. 155-bet.[3]
5. www.ziyonet.uz[4]
6. Faxr-ul Banot Sibgatulloxo qizi. Oila saboqlari.Toshkent "Yozuvchi", 1992 yil. 96-bet.[5]
7. Ubaydullayeva R., Baumgertner V. Ayol va huquq // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. - Toshkent, 1999. - 3-4